O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand iqtisodiyot va servis
Instituti rektori

2024 yil 29 avgust

BANKLARDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta’lim sohasi: 410 000 – Biznes va boshqaruv

Ta’lim yo‘nalishi: 70410501- Bank ishi

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi BMHXS 1104	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
1.	Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	60	90	150

2. **I. Fanning mazmuni**

"Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" fanining asosiy maqsadi – mutaxassislarda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llayotgan banklarda MHXSlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, shuningdek kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. MHXSni chuqur o'rganishni nazarda tutuvchi yangilangan mazkur fan dasturi buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot" fani talablarini ham to'liq inobatga oladi.

Fanning vazifasi – mutaxassislarga Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining mazmuni va talablarini, jumladan, MHXSlari asosida moliyaviy hisobotni taqdim etishning konseptual qoidalari, bankning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromad va xarajatlarini tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy hisobotlarni MHXSlari asosida tuzish va taqdim etish, shuningdek moliyaviy hisobot kompilyatsiyasining nazariy va metodologik asoslarini o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash hamda zamonaviy menejment tizimidagi o'rni. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro professional tashkilotlar faoliyati. Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo'yicha Kengash (MHXSK)ning maqsadi va uning tavsifi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining fan sifatida shakllanishi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fani predmeti, metodi, maqsadi va vazifalari. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari. Moliyaviy hisobotning

konseptual asoslarining jabhalari. Moliyaviy hisobotning sifat jihatdan tavsifi. Moliyaviy hisobot prinsiplari.
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibi, xalqaro standartlarga interpritatsiyalar.

1-son MHXS (IFRS 1) "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" standartining mohiyati va qo'llanilishi.

2-Mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalari

Xalqaro moliyaviy hisobotning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy hisobotning elementlari. Ularni tan olish mezonlari.

1-son BHXS (IAS 1) "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" standartining mazmuni va qo'llanilishi. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, foyda va zararlar hamda boshqa to'plam daromadlar to'g'risidagi hisobotlar, pul oqimi to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobotlarda aks ettiriladigan axborotlar. Hisobotlarga izohlar, hisob siyosatining qisqacha tavsifi va tushuntirishlar. 2027 yildan kuchga kiradigan 18-MHXS "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish" standartidagi yangi o'zgarishlar.

3-Mavzu. Moliyaviy hisobotga doir maxsus standartlarning mazmuni va qo'llanilishi

7-son BHXS (IAS 7) "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" standartining mazmuni va qo'llanilishi. Hisobotni tuzishning bevosita va bilvosita usullari.

8-son BHXS (IAS 8) "Hisob siyosatlari, buxgalteriya hisob-kitoblari baholashlardagi o'zgarishlar va xatolar" standartining mazmuni va qo'llanilishi. 10-son BHXS (IAS 10) "Hisobot davridan keyingi hodisalar" standartining mazmuni va qo'llanilishi. 21-son BHXS (IAS 21) "Xorijiy valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari" standartining mazmuni va qo'llanilishi.

24-son BHXS (IAS 24) "Bog'liq tomonlar to'g'risida axborotlar tavsifi", 26-son BHXS (IAS 26) "Pensiya dasturlari bo'yicha hisob va hisobot", 34-son BHXS (IAS 34) "Oraliq moliyaviy hisobot", 29-son BHXS (IAS 29) "Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot" hamda 8-son MHXS (IFRS 8) "Operatsion segmentlar" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi. Kichik biznesda moliyaviy hisobotning xususiyatlari.

4-Mavzu. Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi

15-son MHXS (IFRS 15) "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar" standartining mazmuni va qo'llanilishi. Tushumlarni tan olish modelining beshta bosqichi. Sharntomalarni identifikatsiyalash, bajarilishlarga oid majburiyatlar, operatsiya narxini aniqlash, operatsiya narxini bajarilishlarga oid majburiyatlarga taqsimlash. Tushumlarni baholash.

Tushumlarni tan olishga doir misollar.

5-mavzu. Tushumlarga oid boshqa standartlar tavsifi va qo'llanilishi

16-son MHXS (IFRS 16) "Ijara" hamda 17-son MHXS "Sug'urta shartnomalari" standartlarining mohiyati va qo'llanilishi.

20-son BHXS (IAS 24) "Davlat subsidiyalari hisobi va davlat yordamlari to'g'risida axborotlar tavsifi", 41-son BHXS (IAS 41) "Qishloq xo'jaligi" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi. Biologik aktivlar tushunchasi, ularni baholash tartibi va hisobga olish qoidalari.

6-Mavzu. Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi

2-son BHXS (IAS 2) "Zaxiralar" standartining mazmuni va qo'llanilishi. Zaxiralar tannarxi elementlari. Zaxiralarni davriy va uzluksiz tizimlarda hisobga olish.

Zaxiralarni tan olish, baholash. Zaxiralarni baholash usullari. Sotilgan zaxiralar tannarxini aniqlash.

Zaxiralarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish.

7-mavzu. Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar doir xalqaro standartlarning mohiyati va qo'llanilishi

16-son BHXS (IAS 16) "Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar" standartining mazmuni va qo'llanilishi. "Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar"ni tan olish, baholash va hisoboti masalalari.

8-mavzu. Nomoddiy aktivlar va investitsiyaviy ko'chmas mulkka doir xalqaro standartlar

38-son BHXS (IAS 38) "Nomoddiy aktivlar" hamda 40-son BHXS (IAS 40) "Investitsion mulk" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

23-son BHXS (IAS 23) "Qarzlar bo'yicha xarajatlar", 5-son MHXS (IFRS 5) "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat" hamda 6-son MHXS "Foydali qazilmalar razvedkasi va baholash" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

14-son MHXS (IFRS 14) "Muddati uzaytirilgan schotlarni tartibga solish" standartining mazmuni va qo'llanilishi.

9-Mavzu. Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi

36-son BHXS (IAS 36) "Aktivlarning qadrsizlanishi" standartining mazmuni va qo'llanilishi.

13-son MHXS (IFRS 13) "Adolatli (haqqoniy) qiymatni baholash" standartining mazmuni va qo'llanilishi.

10-Mavzu. Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining

tavsifi

19-son BHXS (IAS 19) "Xodimlarni rag'batlantirish" hamda 37-son BHXS (IAS 37) "Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

11-Mavzu. Foyda solig'iga dior xalqaro standartlar

12-son BHXS (IAS 12) "Foyda solig'i" standartining maqsadi va qo'llanilishi. Soliq aktivlari va majburiyatlari, ularni hisoblash va hisobotda aks ettirish tartibi.

33-son BHXS (IAS 33) "Aksiyaga foyda" hamda 2-son MHXS (IFRS 2) "Aksiyalar asosida to'lovlar" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

12-Mavzu. Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi

32-son BHXS (IAS 32) "Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish" hamda 39-son BHXS (IAS 39) "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

7-son MHXS (IFRS 7) "Moliyaviy instrumentlar: axborotlarni ochiqlash" hamda 9-son MHXS "Moliyaviy instrumentlar" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

Moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalangan qiymati va adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash. Debitorlik qarzlarini baholash va sof qiymatini aniqlash tartibi. Moliyaviy majburiyatlar va hissali instrumentlarni baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish.

13-Mavzu. Biznes birlashishlari hamda konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi

3-son MHXS "Biznesning birlashishi" hamda 10-son MHXS (IFRS 10) "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi. Konsolidatsiyalashning tartib-qoidalari. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish.

14-Mavzu. Alohida moliyaviy hisobot va investitsiyalarga doir xalqaro standartlar

27-son BHXS (IAS 27) "Alohida moliyaviy hisobot", 28-son BHXS (IAS 28) "Assotsiatsiyalashgan kompaniyalarda investitsiyalar va qo'shma korxonalar" hamda standartlarining mazmuni va qo'llanilishi. Investitsiyalarni hissali qatnashish metodi asosida baholash.

11-son MHXS (IFRS 11) "Qo'shma tadbirkorlik" hamda 12-son MHXS (IFRS 12) "Boshqa tashkilotlarga qatnashish to'g'risida axborotlarni ochiqlash" standartlarining mazmuni va qo'llanilishi.

15-Mavzu. MHXSlar asosida moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi hamda transformatsiyasi

MHXSlari asosida moliyaviy hisobotni kompliyatsiya qilish. MHXS bo'yicha hisobotni tuzishning uslublari. MHXS asosida hisob siyosatini tuzish. Korxonada MHXSlarga o'tish uchun shart-sharoitlar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar. MHXSlarga muvofiq moliyaviy hisobot formatlarini ishlab chiqish. Milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXSlar asosida hisobotlarga transformatsiya qilish tartibi. Hisobotlarni shakllantirish va nazorat jarayonlari. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish tartibi, uning maqsadi va qo'llanilish sohasi.

30-sonli (IAS) BHXS asosida banklar va shunga o'xshash moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy hisobot ma'lumotini yoritishni tashkil etish va uning muammolari.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar;
- tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- biznes birlashishlari va konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi;
- MHXSlar asosida moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi hamda transformatsiyasi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.Buxgalteriya hisobining Britaniya-Amerika modeli va uni O'zbekistonda amaliyotida hisobotlarni transformatsiya qilishdagi muammolar.

2.Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiyadagi professional buxgalterlik tashkilotlarining faoliyati va ularning MHXS joriy etishdagi o'rni.

3.O'zbekistonda buxgalteriya hisobining milliy konseptual asoslarini xalqaro konsepsiyalariga muvofiqlashtirishdagi muammolar va uni takomillashtirish.

4.Xalqaro talablar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tartibga soladigan MHXSlarini

amaliyotga qo'llashlashdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
5. MHXSlari talablari bo'yicha tugallanayotgan faoliyatda aks ettiriladigan axborotlar tarkibi va uni taqdim qilish amaliyoti.
6. MHXSlarda uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlar hisobi va uni takomillashtirish yo'llari.
7. MHXSlari talablari bo'yicha aktivlarning qadrsizlanishidan ko'rilgan zararni tan olish va hisobda aks ettirishni takomillashtirish.
8. MHXSlari talablari bo'yicha rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobini takomillashtirish.
9. 2-sonli «Zaxiralar» BHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolar hamda standartni takomillashtirish.
10.7-sonli «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» BHXS (IAS)ni amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni takomillashtirish yo'llari.
11.8-sonli «Hisob siyosati, hisob baholashidagi o'zgarishlar va xatoliklar» BHXS (IAS)ning mazmuni va uni amaliyotga qo'llashdagi muammolarni hal qilish yo'llari.
12.19-sonli «Xodimlarni rag'batlantirish» BHXS (IAS)ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni hal qilish yo'llari.
13. Qo'shma faoliyatda ishtirok etishni 31-sonli (IAS) BHXSda hisobga olishni tashkil etish va uning muammolari.
14. Sug'urta shartnomalarining xalqaro standartlarda hisobga olinishi va uni takomillashtirish.
15. Buxgalteriya balansi tuzilgandan keyiingi hodisalarning 10-sonli (IAS) BHXS asosida hisobga olishni tashkil etish va uning muammolari.
16. Segment hisobotlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olinishini tashkil etish va uning muammolari.
17. Ish haqining 19-sonli (IAS) BHXS asosida tuzish va uni takomillashtirish.
18. Nafaqa ta'minoti dasturlari bo'yicha hisob va hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashni takomillashtirish.
19. Bog'liq tomonlar haqidagi ma'lumotlarni 24-sonli(IAS) BHXS asosida yoritib berish va uni takomillashtirish
20. 7-sonli "Moliyaviy instrumentlar: Ma'lumotlarni ochib berish" MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va uni hal qilish yo'llari.
21. 8-sonli «Operatsion segmentlar» MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari.
22. 9 -sonli "Moliyaviy instrumentlar" MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari.
23. 10-sonli "Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar" MHXS (IFRS) ning amaliyotga joriy etishdagi muammolar va ularni yechish yo'llari.
24. Banklarda moliyaviy hisobot
25. Banklarda bank operatsiyalarning MHXSlarga muvofiq hisobi
26. Banklarning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitali hisobi
27. Oraliq moliyaviy hisobotni 34-sonli (IAS) BHXS asosida tayyorlashni tashkil etish va uning muammolari.

	Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari** **"Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" fanini o'zlashtirish jarayonida talaba:** **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga kirish bo'yicha:** -moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilishi va ularning asosiy mazmuni, ishlab chiqish protsedurasi hamda MHXS bo'yicha Kengash faoliyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; -moliyaviy hisobotni tayyorlashning konseptual asoslari, moliyaviy hisobot prinsiplari, MHXSlarini birinchi marta qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni egallashi; **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar bo'yicha:** -xalqaro moliyaviy hisobotning mazmuni, maqsadi, axborot foydalanuvchilari, moliyaviy hisobotning elementlarini tan olish va baholash mezonlari, moliyaviy hisobotlarning asosiy formatlarida aks ettiriladigan axborotlar qatori va mazmunini to'liq bilishi; -pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, hisob siyosati, baholashdagi o'zgarishlar va xatolar, hisobot davridan keyingi hodisalar, valyuta kursidagi o'zgarishlar ta'siri, oraliq moliyaviy hisobot, pensiya dasturlari bo'yicha hisobot, operatsion segmentlar hamda kichik biznesda moliyaviy hisobotning xususiyatlari masalalari bo'yicha xalqaro standartlar mazmuni va qo'llanilishi bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi. **Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarning tavsifi bo'yicha:** -xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushumlar, qurilish shartnomalari bo'yicha tushumlarni tan olishga doir xalqaro standartlarni bilishi va qo'llay olishi; -ijara hamda davlat subsidiyalari va yordamlari hisobiga oid standartlarni bilishi. **Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi bo'yicha:** -zaxiralar, yer, bino, mashina va asbob-uskunalar, biologik aktivlar, foydali qazilmalarga oid xalqaro standartlarning mazmuni va qo'llanilishiga doir amaliy ko'nikmalar hosil qilish; -qarzlar bo'yicha xarajatlar, investitsiyaviy ko'chmas mulk, nomoddiy aktivlar, sotish uchun mo'ljallangan deb tavsiflangan uzoq muddatli aktivlar, davom ettirilmaydigan faoliyatlar, muddati uzaytirilgan schetlar hisobi va hisobotiga doir xalqaro standartlarni o'rganishi va ularni qo'llash bo'yicha kompetensiyaning shakllanishi; **Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi bo'yicha:** -aktivlarning qadrsizlanishi hamda adolatli (haqqoniy) qiymatda baholashga oid standartlarning mazmuni va qo'llanilishini bilishi. -nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi bo'yicha: -rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar, xodimlarni rag'batlantirish oid standarlarni qo'llay olishi;

-foyda solig'i, aksiyaga foyda hamda aksiya asosida to'lovlar standartlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi bo'yicha:

-moliyaviy instrumentlar, jumladan, moliyaviy aktivlar, moliyaviy majburiyatlar hamda hissali instrumentlarga doir axborotlarni tayyorlash va taqdim etish tartib-tamoyillarini bilishi.

Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi bo'yicha:

-biznes birlashishi, alohida moliyaviy hisobot hamda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bo'yicha standartlarni amaliy qo'llay olishi;

-assatsiatsiyalashgan kompaniyalarga investitsiyalar hamda hissali qatnashish metodi bo'yicha investitsiyalar, qo'shma faoliyatga doir standartlarning mazmuni va qo'llanilishini amaliy jihatdan bilishi.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasi bo'yicha:

-MHXSlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishi, moliyaviy hisobotni kompilyatsiya qilishi, MHXSlarga muvofiq hisob siyosatini shakllantira olishi;

-milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni MHXSlar asosida moliyaviy hisobotga transformatsiya qilishni bilishi, banklarda moliyaviy hisobot, MHXSlar asosida hisobot formatlarini shakllantira olishi, axborot texnologiyalarini qo'llay olishi hamda DipIFR bo'yicha diplom olishga doir talablar va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6. **Asosiy adabiyotlar:**

1. С.Н. Ташназаров. Молиявий хисоботнинг халкаро стандартлари: Олий ўкув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA". 2019. – 584-б. https://www.academia.edu

2. С.Н.Ташназаров. Молиявий бухгалтерия хисоби 1. – Самаркфанд: "Step-Sel" МЧЖ нашриёти, 2023 -580-бет.

3. Международные стандарты финансовой отчетности. http://www.ifrs.org.ua/mezhdunarodny-e-standarty-finansovoj-otchyotnosti/

4. Pricewaterhouse Coopers. Все права защищены. Этот материал подготовлен Академией PwC для экзаменов ДипИФР в 2016 году. 3205 с. https://www.pwc.ru/ru/training/assets/dipifr-dec2014-textbook.pdf

5. ACCA В рамках Диплома ACCA «Финансы и Управление Бизнесом», «Финансовая Отчетность» Учебник. Kaplan Financial Limited, 2020

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Бухгалтерия хисоби тўғрисида"ги Қонуни. 2016 йил 14 апрель. http://www.lex.uz/acts/2931253.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошкарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2015 йил 24 апрель. ПФ-4720.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Молиявий хисоботнинг халкаро стандартларига ўтишнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. 2020 йил 24 февралда ПҚ-4611.
4. Молиявий хисоботнинг халкаро стандартлари. http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/ 2018 й.
5. International Financial Reporting Standards. www.ifrs.org/issued-srandards/list of-standards/ 2018.
6. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O„quv qo„llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
7. Ташназаров С.Н. Иктисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий хисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: "Navro'z", 2016 й. -295 б.
8. Ташназаров С.Н. Молиявий хисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-

Axborot manbalari:

1. https://www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.
2. https://www.imv.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
3. https://www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
4. https://www.deloitte.com – Deloitte & Touche auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
5. https://www.pwc.com. – Pricewaterhouse Coopers auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
6. https://www.kpmg.com – KPMG auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.
7. https://www.ey.com – Ernst & Young auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.

7. Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

8. **Fan/modul uchun ma'sullar:**

S.N.Tashnazarov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

9. **Taqrizchilar:**

A.N.Turayev - TDIU, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dots.nti, iqtisodiyot fanlari doktori (turdosh OTM)

R.A.Abdullayev –O'zbekiston " Buxgalterlar va auditorlar Assotsiatsiyasi" Samarqand filiali raisi